


VIII. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhimi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Xizmatlarning turiligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-sentabr)



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish


(2024- yilning yanvar–sentabr holatiga)

	mlrd. so'm	O'sish surati,%	Jamiga nisbatan, %
Xizmatlar-jami	37 731,7	111,9	100,0
shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 484,3	112,9	4,0
moliyaviy xizmatlar	5 063,6	116,3	13,4
transport xizmatlari	4 638,3	110,8	12,3
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	4 242,8	110,3	11,2
yashash va ovqatlanish xizmatlari	11 960,9	110,8	31,7
savdo xizmatlari	7 889,8	112,2	20,9
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	637,3	114,0	1,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 246,9	117,3	3,3
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	729,5	100,2	1,9
ijara xizmatlari	495,2	106,8	1,3
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	863,0	110,7	2,3
shaxsiy xizmatlar	1 318,4	109,8	3,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	186,4	107,5	0,5
boshqa xizmatlar	1 217,9	109,5	3,2

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni yashash va ovqatlanish xizmatlari (31,7 %), savdo xizmatlari (20,9 %), moliyaviy xizmatlar (13,4 %) tashkil etgan.


Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me'morchilik, muhandislik izlanishlari texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,5 %), ijara xizmatlari (1,3 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (1,7 %) tashkil etgan.

2024- yilning yanvar-sentabr holatiga xizmatlar tarkibi (jamiga nisbatan %da, katta ulushga ega bo'lganlar)




Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari (jami xizmatlarning 20,9 %), moliyaviy xizmatlar (13,4 %), transport xizmatlari (12,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (4,0 %) hissasiga to'g'ri keldi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm




Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida eng yuqori hajm savdo xizmatlari 7 889,8 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar 5 063,6 mlrd.so'm, transport xizmatlari 4 638,3 mlrd.so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 1 484,3 mlrd. so'mni tashkil etganini ko'rish mumkin.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



2024-yil yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Farg'ona viloyatida 11 960,9 mlrd.so'mni tashkil etdi. Shundan, yashash bo'yicha xizmatlar 277,2 mlrd.so'm, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 11 683,7 mlrd.so'mni tashkil etgan.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida transport bo'yicha xizmatlar tarkibi,% da



2024-yil yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlari hajmi Farg'ona viloyatida 4 638,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 4 242,8 mlrd.so'mni, jami transport xizmatlarining 91,5 %ini tashkil etadi.

Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish


(2024- yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd.so‘m	2023- yil yanvar-sentabr holatiga nisbatan %da	jami xizmatlar hajmiga nisbatan %da	ming so‘m	2023-yil yanvar-sentabr holatiga nisbatan %da
Farg‘ona viloyati	37 731,7	111,9	100,0	9 219,5	109,6
<i>shaharlar:</i>					
Farg‘ona	7 290,8	112,1	19,3	22 474,7	109,6
Qo‘qon	4 014,6	112,4	10,6	12 929,4	110,6
Quvasoy	517,6	112,0	1,4	5 079,4	109,7
Marg‘ilon	1 977,0	112,1	5,2	7 747,0	109,1
<i>tumanlar:</i>					
Oltiariq	970,6	111,9	2,6	4 216,5	109,7
Qo‘shtepa	513,0	111,1	1,4	2 441,9	108,7
Bag‘dod	488,8	111,4	1,3	2 079,9	109,0
Buvayda	943,7	112,4	2,5	3 785,4	109,8
Beshariq	596,4	112,1	1,6	2 440,4	110,0
Quva	598,9	110,9	1,6	2 157,4	108,9
Uchko‘prik	860,5	112,1	2,3	3 534,1	109,7
Rishton	655,2	112,1	1,7	2 998,7	109,8
So‘x	280,0	111,3	0,7	3 309,8	108,8
Toshloq	721,5	111,6	1,9	3 291,5	110,0
O‘zbekiston	524,6	110,9	1,4	2 206,1	108,3
Farg‘ona	737,0	111,9	2,0	3 303,4	109,7
Dang‘ara	529,7	112,1	1,4	2 965,8	109,5
Furqat	365,9	112,2	1,0	2 856,6	109,8
Yozyovon	433,8	111,7	1,1	3 596,9	109,5
Taqsimlanmagan hajm	14 711,9	116,0	39,0		

Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o‘shish sur‘ati Qo‘qon shahriga (112,41 %) va tumaniga (114,4 %) to‘g‘ri keldi. Viloyat bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning yuqori ulushlari Taqsimlanmagan hajm (39,0 %), Farg‘ona shahri (19,3 %), Qo‘qon shahri (10,6 %), Marg‘ilon shahri (5,2 %) va Oltiariq (2,6 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Ko‘rsatilgan xizmatlarning eng past ulushlari So‘x (0,7 %), Fuqat (1,0 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.


2024- yilning yanvar-sentabr holatiga xizmatlar sohasida ulushi katta bo'lgan hududlar

(jamiga nisbatan %da)



2024-yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 9 219,5 ming so'mga teng bo'ldi. Uning o'sish sur'ati esa o'tgan yilga nisbatan 109,6 %ni tashkil etdi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan eng katta xizmatlar hajmi Farg'ona (22 474,7 ming so'm), Qo'qon (12 929,4 ming so'm) va Marg'ilon (7 747,0 ming so'm) shaharlarida qayd etildi. Shuningdek, Quvasoy shahri (5 079,4 ming so'm), Oltiariq (4 216,5 ming so'm) va Buvayda (3 785,4 ming so'm) tumanlarida ham aholi jon boshiga xizmatlar hajmi salmoqli bo'ldi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Bag'dod tumanida (2 079,9 ming. so'm) kuzatildi, o'sish sur'ati 109,0 %ni tashkil etdi.